



**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI**

*2021- YIL YANVAR-OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 60 303,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,8 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 19,7 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 4,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 0,9 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 15,1 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 268,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - oktabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49 904,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,8 % ini tashkil etdi.

2020-yil yanvar-oktabr


84,4 %

2021-yil yanvar-oktabr

82,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,1 % (4,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 84,4 % (88,3 %) va quyi texnologiyalisi – 7,2 % (6,5 %)ni tashkil etdi.

■ 2020- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 75,7 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 117,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 112,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 154,3 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Natriy gidroksidi (kaustik soda)




Suvsiz ammiak




Sement




Azot



Tvorog va tvorogdan mahsulotlar



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 12,0 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 127,1 % ga o'sgan), 68,7 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (104,9 %), 568,2 ming tonna suvsiz ammiak (196,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	3 088,0	3 189,4	103,3
Azot, ming m ³	9,5	12,0	127,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	56 076	52 581	93,8
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna	65,5	68,7	104,9
Kislorod, ming m ³ .	170,5	140,7	82,5
Suvsiz ammiak, ming tonna	289,9	568,2	196,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	370,3	393,0	106,1
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	68,5	52,7	76,9

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,5 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 75,7 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 100,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 37 770,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 164,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 418,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 546,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 102,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 36,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 148,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati




2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 79,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 105,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 728,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 128,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,0 % ni, fizik hajm indeksi 169,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 517,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 063,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9 536,9	9 182,2	- 354,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 569,0	3 414,7	845,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	32 634,3	54 749,2	22 114,9
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	9,3	81,4	72,1
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	45 325,4	38 759,5	-6 565,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 167,8 % ni va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar - 8,8 (bar.) ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 473,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil
yanvar-oktabr

39,7%

2021- yil
yanvar-oktabr

41,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020- yil
yanvar-oktabr

60,3%

2021- yil
yanvar-oktabr

58,8%



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 28,4 % ni, Karmana tumani 19,3 % ni, Xatirchi tumani 12,9 % ni, Qiziltepa tumani 12,2 % ni hamda Navbahor tumani 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (127,8 %) hamda Karmana tumanida (114,5 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 28,4 % shuningdek, Karmana 19,3 %, Xatirchi 12,9 % ni, Qiziltepa tumanlarida 12,2 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi




Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 34,5 % shuningdek, Karmana 22,5 %, Xatirchi 9,6 % ni, Nurota tumanlarida 8,3 % ni tashkil etdi.



1 640,0 mlrd. so'm
2019- yil yanvar-oktabr

1 876,1 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-oktabr

2 042,9 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-oktabr




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 19,8 % ni, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,4 % ni, Xatirchi tumani esa 17,6 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm


1 031,3 mlrd. so'm
2019- yil yanvar-oktabr

1 232,3 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-oktabr

1 430,5 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-oktabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 85,4 % ni, shuningdek, Karmana tumani 9,7 % ni, Xatirchi tumani esa 1,7 % ni tashkil etdi.

Navoiy vloyati

2019- yil

35 883,3 mlrd. so'm

2020- yil

53 091,0 mlrd. so'm

2021- yil

60 303,4 mlrd. so'm



2019- yil


102,9 %

2020- yil

109,5 %

2021- yil

105,7 %



FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 854,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,1 %), Nurota tumanida (94,2 %), Qiziltepa tumanida (84,2 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,8 %), Karmana (16,2 %), Xatirchi (44,9 %), Navbahor (50,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 3 686 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 785 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,3 %) Navoiy shahriga, 604 tasi (16,4 %) Karmana tumaniga, 480 tasi (13,0 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan
faoliyat yuritayotgan